LIFELONG LEARNING

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC THEORETICAL AND METHODICAL JOURNA



2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

“LIFELONG LEARNING”
ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

“ LIFELONG LEARNING ”
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ЖУРНАЛ

“LIFELONG LEARNING”
SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODOLOGICAL JOURNAL

№ 1, 2025



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA KOLLABORATIV YONDASHUV

Aslanova Nozima Xakimovna
BVPMM, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), Buxoro viloyati
nozimaaslanova3@.gmail.com (+998907452895)

Annotatsiya. *Ekologik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon bolalarning atrof-muhitni anglashiga, tabiatni muhofaza qilishga intilishiga va ekologik madaniyat asoslarini o'zlashtirishiga yordam beradi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda kollaborativ yondashuv masalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Ekologiya, indikator, hamkorlik, tabiat, mehr, mas'uliyat, muammo, madaniyat, tafakkur, muhokama.*

Dunyo ta'limida bolalikda olingan bilimning ahamiyati beqiyos sanaladi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bolalarning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining shakllanishi, bilish jarayonlari hamda ijodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan indikatorlar berilgan. Shuningdek, bu indikatorlar asosida bolalarga atrof-muhitni asrash, yashil tabiatga mehr uyg'otish orqali global muammolarni hal qilishga befarq bo'lmaslik va ogohlik ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Ekologik tarbiyaning ahamiyati bolalarni tabiatni sevish va himoya qilishga yo'naltiradi va ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va mehr uyg'otadi. O'simlik va hayvonlarning inson hayotidagi o'rnini tushunishga yordam beradi. Ko'chatlar ekish, sug'orish, qurigan barglarni to'g'ri utilizatsiya qilish kabi foydali odatlarni shakllantiradi.

Bolada ekologik ong va mas'uliyatni rivojlantirishda tabiatni asrash bo'yicha dastlabki tushunchalarni berish muhim sanaladi. Bunda bolalarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka o'rgatiladi. Ekologik muammolar haqida sodda, bola yoshiga mos tushuntirishlar beriladi.

Bolalarning kuzatuvchanlik, mas'uliyat va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham yashil tabiatni kuzatishning ahamiyati beqiyos. Chunki, tabiat hodisalarini kuzatish orqali bola tafakkuri rivojlantiradi. Bu esa jonli tabiatda o'simlik va hayvonlarning o'sish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishga yordam beradi. Fan va tabiat markazida olib boriladigan tajribalar orqali sabab-oqibat bog'liqliklari muhokama etiladi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ekologik bilimlar ham muhim o'rin tutadi. Bolalar toza havo, suv va sog'lom ovqatlanishda o'simliklar, meva va sabzavotlarning ahamiyatini tushunadilar. Yashil hududlar, bog' va tabiat qo'ynida bo'lishning ahamiyati o'rgatiladi. Ekologik toza mahsulotlardan foydalanish madaniyatini singdiriladi.

“Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida MTTda ekologik tarbiya bo‘yicha guruhlarda oy mavzulariga oid quyidagi mashg‘ulotlar reja asosida tashkil etiladi.

Kichik guruhda: Sentabr oyining 4-haftasida “Syujetli rolli o‘yinlar”markazida “Keling birga daraxtlar ekamiz”, Oktabr oyining 1-haftasida “Ilm fan va tabiat” markazida “Bir xil barglarni top”, “Meva rangini top” o‘yin-mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O‘rta guruhda: Sentyabr 1-haftada “Ilm fan va tabiat” markazida “Kuz barglari”, 2-haftada “Urug‘idan top” didaktik o‘yinlar tashkil etiladi.

Katta guruhda: Sentabr 1-haftada “Hayvonot bog‘ida qanday mevalar olib boramiz?”, oktabrning 1-haftasida “Syujetli rolli o‘yinlar”markazi uchun “Bozorda qanday o‘simliklar sotiladi?”, 2-haftada “Nutq va til” markazida “Bog‘da yoki dalada”, “Urug‘idan hosiligacha” o‘yinlari tashkil etiladi.

Tayyorlov guruhda: Tayyorlov guruhda ham xuddi katta guruhidagi o‘yinlar bir oz murakkablashgan holda davom ettiriladi. Yana qo‘shimcha qilib sentabr oyining 2-haftasida “Nutq va til”markazida “Meva va sabzavotlar jangi”, “Non qayerdan keladi?” nomli didaktik o‘yinlar tashkil etilishi mumkin.

MTTda ekologik tarbiyani shakllantirish usullari sifatida:

Tabiat burchaklarida ishlash – bolalar o‘simlik ekib, parvarish qilishni o‘rganadilar.

Sayohatlar va ekskursiyalar – bog‘, o‘rmon, dalalar, poliz va suv havzalariga tashrif buyurish orqali ulardagi o‘simliklar haqida ekologik tushunchalar hosil qilinadi.

O‘**yin va interaktiv mash**g‘**ulotlar** orqali ekologik mavzularda ertak, rolli o‘yinlar o‘tkazish muhim hisoblanadi.

Oddiy tajribalar o‘**tkazish, ya’ni** o‘**simliklarning** o‘**sishi uchun zarur b**o‘**lgan** suvning (suyuq, qattiq, bug‘) holatlari, qulay harorat, havo, tuproq va boshqa omillar asosida o‘simliklarni o‘stirish, ovqatga solinadigan ko‘katlarni o‘stirish, hayvonlarni o‘simliklar bargi bilan oziqlantirish bilan bog‘liq qiziqarli tajribalar o‘tkazish asosida ekologik tarbiya berish yanada samarali hisoblanadi.

Amaliy mashg‘**ulotlar** – tabiiy materiallar bilan ishlash, chiqindilarni saralash, qushlar uchun in yoki donxo‘rak yasash, uni donlar bilan to‘ldirish, bog‘chaning gulzorini gularga to‘ldirish, tozalash va b.

Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o‘yinlardan keng foydalaniladi. O‘yinlarning turlari juda ko‘p bo‘lib, ular bolalarni fikrlashga, o‘ylashga, mas’uliyatni xis etishga, diqqat-e’tiborli bo‘lishga, hamda o‘yin davomida o‘rtoqlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadigan jarayon bo‘lishi kerakdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik tarbiya berish, ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish va ekologiyani asrashga qaratilgan muhim tarbiyaviy jarayon hisoblanadi.

Pedagog tomonidan gurunga tashkil etilgan yashil burchakda yoki bog‘cha atrofida jonli tabiatning ajralmas qismi sifatida o‘simliklar dunyosi bilan tanishtirish ham qiziqarli samarali jarayon hisoblanadi. Bunda daraxtlar, gullar, ekinlar, ularning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha berish nazarda tutiladi. Immersiv hamda kinestetik usullar orqali yashil tabiatning ajralmas qismi sifatidagi o‘simliklarning inson va hayvonlar hayotidagi ahamiyatini tushuntirish muhim bosqich sanaladi. Shuningdek, bolalar gullar va o‘simliklarni ekish, parvarish qilishga o‘rgatiladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida bolalar o‘simliklar **dunyosi haqida ma’lumot oladilar. Ularga mevali va manzarali daraxtlar, xona va landshaft gullari, shifobaxsh va yovvoyi** o‘**simliklarni** farqlash, suv va cho‘l o‘tlari, ularning inson, qushlar, hasharotlar, hayvonlar uchun muhimligi haqida bilim berish, hayvonlar va qushlarning o‘simliklar poyasi, bargi, mevasi, urug‘i va ildizi bilan oziqlanishini o‘rgatish har bir pedagogning muhim vazifasi sanaladi.

Bolalarni **ekologik tarbiyalashda yashil** tabiatni asrash, atmosferani toza havo bilan ta’minlovchi o‘simliklarni ko‘paytirish, ariqlar va tevarak-atrofni ifloslantirmaslik, daraxtlarni sug‘orish, oqlash, atrofini yumshatish, gullar ekish hamda bu jarayonda suvni tejash kabi tushunchalar singdiriladi. “Yashil gulzor”, “Bog‘bonlar”, “Toza havo”, “Bizning o‘rmoncha” kabi atrof-muhitni asrashga qaratilgan tadbirlar tashkil etiladi.

Bolalar bilan t**abiat q**o‘**ynida** o‘**yin va tajribalar** o‘**tkazish asosida t**abiatga sayohatlar tashkil qilish, o‘simliklar bilan bog‘liq oddiy tajribalar o‘tkazish nazarda tutiladi. Bunda tabiiy materiallardan foydalanib, eksperimental, ijodiy va kreativ ishlar bajarish (fan va tabiat markazida urug‘larning unib chiqishi haqida tajribalar, san’at markazida tabiat manzaralarini an’anaviy va noan’anaviy usullarda tasvirlash) ko‘zda tutiladi. Bu jarayon bolalarning kuzatuvchanlik, tafakkur, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otadi.

Tabiiy materiallar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarni diqqat-e`tiborli bo‘lishga undaydigan bo‘lishi kerak. Masalan: qush, suv, toshlar, qorlar bilan o‘yinlar o‘ynashlari mumkin. Yani ularning hususiyatlari, qanday harakatlarni keltirib chiqarishni o‘rganadilar va ular haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti”. Toshkent. 2020-yil 22-dekabr 802-son.

2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. Toshkent. 2022 y

3. O.U. Xasanboyeva, X.J.Djabborova Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi T. Cho‘lpon. 2007.

4. H. Haydarov, S. Nishonova. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T.: O‘qituvchi. 1992.

5. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.: O‘qituvchi. 1995.

6. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim –tarbiya berishning o‘ziga xosligi. T.: O‘qituvchi. 2000

PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 69

Hakimova Nargiza Supxonovna, Jumaqulova Charosxon Ravshanovna

TA'LIM TARBIYA JARAYONLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR 74

Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna

"OILA PEDAGOGIKASI" FANI ASOSIDA TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (PEDAGOGIK OLIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA) 80

Hamdamova Sitora Rustam qizi

FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANINI O'QITISHDA BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH 87

Avezmuratov Ollayor, Avezmuratova Zebo Allayarovna

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI 93

Turdiyeva Mohira Juraqulovna

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MODUL TIZIMINING SAMARADORLIGI 97

Matyoqubov Xamidjon Rozzaqovich, Kurbanov Umirbek Muhammedovich, Yo'ldoshboyeva Sharifa Xushnud qizi,

BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHIDA HAMKORLIK TA'LIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 104

Aslanova Nargiza Xakimovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA KOLLABORATIV YONDASHUV 108

Aslanova Nozima Xakimovna

O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI AMTXAUER VA VEKSLER METODIKASI YORDAMIDA ANIQLASH 111

Sharipov Abdumalik Axmadovich

MUSIQA TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI 115

Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich